



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<b>Abilov Muslim Normuxammadovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<b>Bolqiyev Axmad</b>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<b>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</b>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<b>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</b>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<b>G. R. Tolibova</b>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<b>Garifullina Alsu Robert qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<b>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</b>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<b>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</b>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<b>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<b>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</b>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<b>Mamanazar Djumayev</b>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<b>I. B. Matmuratova</b>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<b>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</b>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<b>Normamatova Sevinch Asror qizi</b>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<b>Ollqova O'g'iljon Mamanazarovna</b>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<b>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<b>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</b>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<b>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<b>Shavqiddin Burxonov</b>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<b>Temirov Murodjon Anvarovich</b>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari... 95	
<b>Umarov Qobiljon</b>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari ..... 98 <b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	98
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash ..... 102 <b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	102
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта ..... 106 <b>Панжиева Назокат Нормаматовна</b>	106
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации ..... 111 <b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	111

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Bolqiyev Axmad**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati, usullari va shakllari o'rganilgan. Milliy qadriyatlar - vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar - shaxs kamolotining poydevori sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda boshlang'ich ta'lim bosqichida milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishning samarali pedagogik texnologiyalari tahlil qilingan. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik ma'lumotlar asosida isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, boshlang'ich ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiya, vatanparvarlik, shaxs kamoloti.

**Abstract:** This article examines the pedagogical significance, methods and forms of educating primary school students in the spirit of national values. National values - patriotism, humanism, diligence, family values, customs and traditions - are considered as the foundation of personal development. The study analyzes effective pedagogical technologies for instilling national values in students' minds at the primary education level. The positive influence of national values-based education on the moral and spiritual development of students is proved on the basis of empirical data.

**Key words:** national values, primary education, moral-spiritual upbringing, pedagogical technology, patriotism, personal development.

**Аннотация:** В данной статье исследуются педагогическое значение, методы и формы воспитания учащихся начальных классов в духе национальных ценностей. Национальные ценности - патриотизм, гуманизм, трудолюбие, семейные ценности, обычаи и традиции - рассматриваются как основа формирования личности. В исследовании проанализированы эффективные педагогические технологии формирования у младших школьников национальных ценностей на этапе начального образования. На основе эмпирических данных доказано положительное влияние воспитания, основанного на национальных ценностях, на духовно-нравственное развитие учащихся.

**Ключевые слова:** национальные ценности, начальное образование, духовно-нравственное воспитание, педагогическая технология, патриотизм, формирование личности.

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda yuz berayotgan tez sur'atli o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining keng yoyilishi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarni saqlash, avloddan avlodga yetkazish va yoshlarda milliy o'zlikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari doirasida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich maktab yoshi - shaxsning dastlabki qadriyatlar tizimi shakllanadigan, xulq-atvor me'yorlari singdiriladigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Milliy qadriyatlar deganda xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy mezonlari, urf-odalari, an'analari, tarixi va madaniyatiga oid qadriyatlar majmui tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- vatanparvarlik va milliy g'urur;
- insonparvarlik va mehr-muruvvat;



- mehnatsevarlik va halollik;
- oila va ota-ona hurmatini saqlash;
- milliy urf-odatlar va an'analar <sup>[2]</sup>.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bir necha pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi.

*Birinchi*dan, o'quv jarayonini milliy qadriyatlar bilan boyitish zarur. Darslik matnlari, badiiy adabiyot namunalari, tarixiy ma'lumotlar va mahalliy urf-odatlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallari o'quvchilarning milliy ongini shakllantiradi.

*Ikkinchi*dan, o'qituvchining shaxsiy namunasi va kasbiy mahorati hal qiluvchi rol o'ynaydi <sup>[3]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Uning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ma'naviy tarbiya shaxs kamolotining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatib berilgan <sup>[2]</sup>.

O. Hasanboyeva va S. Xasanova milliy istiqloq g'oyasi hamda milliy qadriyatlarning yoshlar ongida shakllanish mexanizmlarini tahlil qilib, ta'lim jarayonida milliy g'urur, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritganlar <sup>[3]</sup>. Ularning fikricha, milliy qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi.

S.T. Nishonova boshlang'ich sinflarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish masalalarini o'rganib, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etgan <sup>[7]</sup>. Olimaning tadqiqotlarida boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs tarbiyasining eng muhim davri sifatida baholanadi.

J.G'. Yo'ldoshev milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan. U milliy tarbiya jarayonida oila, maktab va mahalla hamkorligining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi <sup>[8]</sup>.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda. M. Abdurashidova, S. Nematov, Z. Mukhiddinov va I. Nasriddinovlarning tadqiqotlarida innovatsiyalar va raqamlashtirishning ta'lim sifati hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan <sup>[5]</sup>.

Shuningdek, Z.S. Sharipova ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida milliy va ma'naviy qadriyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilarga yetkazish imkoniyatlarini yoritgan <sup>[6]</sup>.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning nazariy asoslari yetarlicha o'rganilganligini ko'rsatadi. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalarini amaliy tajriba asosida baholash masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu jihatdan mavjud ilmiy izlanishlarni to'ldiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz Jizzax davlat pedagogika universiteti qoshidagi tajriba maktablarida olib borildi. Tadqiqotda 200 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi ishtirok etdi. Ular tajriba (n=100) va nazorat (n=100) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida milliy qadriyatlarni singdiruvchi maxsus pedagogik dastur qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim usullari davom ettirildi.

Pedagogik dastur uch yo'nalishda amalga oshirildi:

1. **Dars jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalash:** o'zbek xalq ertaklari, maqol va matallar, tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va insonparvarlik tuyg'ulari tarbiyalandi.
2. **Sinfdan tashqari tadbirlar:** milliy bayramlar, xalq o'yinlari, hunarmandchilik ustalari bilan uchrashuvlar orqali o'quvchilar milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirildi.
3. **Oila bilan hamkorlik:** ota-onalar bilan seminarlar, uy vazifalarida milliy qadriyatlarga oid loyihalar orqali oila va maktab hamkorligi ta'minlandi <sup>[4]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining natijalarini taqqoslash

Ko'rsatkich	Tajriba (oldin)	Tajriba (keyin)	Nazorat (oldin)	Nazorat (keyin)
Vatanparvarlik (ball)	3,2	4,7	3,1	3,4
Insonparvarlik (ball)	3,0	4,6	3,1	3,2
Mehnatsevarlik (ball)	3,3	4,8	3,2	3,4
Oila qadri (ball)	3,4	4,9	3,3	3,5
Umumiy o'rtacha	3,2	4,7	3,2	3,4

Izoh: Baholash 5 ballik tizim asosida amalga oshirildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, oila qadri (+1,5 ball) va mehnatsevarlik (+1,5 ball) ko'rsatkichlari yuqori natijalarni qayd etdi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar minimal darajada bo'lib qoldi. Bu natijalar milliy qadriyatlar asosidagi maxsus pedagogik dasturning samarali ekanligini tasdiqlaydi <sup>[5]</sup>.

Olingan natijalar bir qator pedagogik xulosalar chiqarishga imkon beradi.

*Birinchidan*, milliy qadriyatlarni dars jarayoniga organik tarzda integratsiya qilish mumkin va zarur.

*Ikkinchidan*, sinfdan tashqari tadbirlar va oila bilan hamkorlik milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

*Uchinchidan*, o'qituvchining ijodiy yondashuvi va shaxsiy namunasi bu jarayonning muhim omili hisoblanadi <sup>[6]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - bu nafaqat ta'lim vazifasi, balki jamiyatning kelajagi uchun mas'uliyatli pedagogik faoliyatdir. Tadqiqot natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, maqsadli pedagogik dastur orqali qisqa muddatda ham o'quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Milliy qadriyatlarni boshlang'ich ta'limga integratsiyalashning quyidagi yo'nalishlari istiqbolli hisoblanadi: o'quv dasturlarini milliy qadriyatlar mazmuni bilan boyitish; o'qituvchilarni milliy qadriyatlar pedagogikasi bo'yicha malaka oshirish; oila va maktab hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish.

Kelajakdagi tadqiqotlar bu natijalarning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish, shuningdek, turli mintaqaviy va madaniy kontekstlarda milliy qadriyatlar pedagogikasini taqqoslash yo'nalishida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi haqida"gi farmoni. - Toshkent, 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
3. Hasanboyeva O., Xasanova S. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2001. - 210 b.
4. Tog'ayev S. Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar. - Toshkent: Fan, 2019. - 128 b.
5. Abdurashidova M., Nematov S., Mukhiddinov Z., Nasriddinov I. The impact of innovation and digitalization on the quality of higher education. Journal of Intelligent Systems, 32(1), 2023.
6. Sharipova Z.S. Digital transformation of the education system in Uzbekistan. Pioneering Studies and Theories, 1(4), 2025. - P. 35-39.
7. Nishonova S.T. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-axloqiy tarbiya. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. - 96 b.
8. Yo'ldoshev J.G'. Milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: O'qituvchi, 2015. - 240 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.